



## JAHONGASHTA ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING IJOD YO'LI

XIDIRNAZAROV SHERZOD SHERMUHAMMADOVICH<sup>1</sup>, IBOTOV  
QOBILJON NURILLA O'G'LI<sup>2</sup>

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi universiteti ofitseri

<sup>2</sup>O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi universiteti kursanti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6326188>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 15-Fevral 2022

Ma'qullandi: 20 - Fevral 2022

Chop etildi: 25 - Fevral 2022

### KALIT SO'ZLAR

“Boburnoma”, lirika,  
“Volidiya”, “Mubayyin”,  
masnaviy, turkiy qo'lyozma,  
devon, badiiy meros

### ANNOTATSIYA

*Mazkur maqolada buyuk sarkarda, davlat va madaniyat arbovi, donishmand tarixchi, zakovatli olim va tarjimon Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodining o'rganilishi, lirikasining badiiyati, ma'rifiy ahamiyati xususida fikr yuritilgan.*

Tarixning shohidlik berishicha, insoniyat tarixida yuksak iz qoldirgan, keyingi avlodlarga o'zining jamiyatdagi mavqei, ilmiy, badiiy merosi bilan ibrat namunasi bo'la oladigan shaxslar dunyoga juda kam keladi. XV- XVI asr o'zbek xalqi, adabiyoti, ma'naviyati tarixida Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Mirzo Boburni bemalol ana shunday shaxslar qatoriga kiritish mumkin.

Zahiriddin Muhammad Bobur umrining o'zi avlodlarga ibrat namunasidir. U 47 yoshli qisqa, ammo ijodiy barakali, barkamol hayotida yuz yil yashab ham uddalab bo'lmaydigan ishlarni ado etdi.

Bobur o'z davrining shoh va shoirligidan tashqari, ulkan tarixchisi, etnografi, o'lkashunosi, biolog, geograf, dinshunos olimi sifatida ham dovuq topgan. Shariat ahkomlarini mukammal bilgan va bu borada ham risola yozgan. Arab alifbosining

murakkab, o'rganish og'ir bo'lganligi bois, yangi «Xatti Boburiy» alifbosini yaratgan. Davlatchilikda vaqt me'yorlarini qayta ishlab chiqqan, pochta tizimiga qulay tarzda tartib bergan va yana qanchadan-qancha islohotlarni amalga oshirgan. Borgan yerida obodonchilik, bog'lar barpo etgan, Movarounnahr sivilizasiyasini Sharqda tarqatgan buyuk shaxsdir.

Zahiriddin Muhammad Bobur sohibdevon shoir bo'lsa-da, uning devoni bizgacha mukammal holda yetib kelmagan. Hozirgacha shoirning 119 g'azal, 1 masnaviy she'ri, 209 ruboiysi, 10 dan ortiq tuyuq va qit'alari, 50 dan ortiq muammo va 60 dan ziyod fardlari aniqlangan. Devoni tarkibidan umumiy hajmi 270 baytdan iborat 8 masnaviy ham o'rin olgan.

Adabiyotshunos olimi Shafiqa Yorqin Boburning Turkiyadagi Istanbul universiteti kutubxonasi turkiy



qo'lyozmalar bo'limida 3743 raqami ostida saqlanayotgan devonidagi uning hozirgacha nashr etilgan to'plamariga kirmagan o'zbek tilidagi 5 g'azali, 9 qit'asi, 5 ruboiysi, 9 masnaviy she'ri, 10 to'rligi, 2 tuyug'i, 40 dan ortiq fardlari, qator masnu' she'rlari, 1 masnu' tarje'bandi, 2 nomasi, fors-tojik tilidagi 1g'azali, 10 ruboiysi, 4 qit'asi, 12 fardi va 2 nomasini e'lon qildi.<sup>1</sup>

Bobur lirikasi mavzu doirasi, shakliy takomili va badiiyligi jihatidan g'oyat go'zal va mukammalligi bilan alohida e'tiborga loyiq. Shoirning she'rlarida hayotbaxsh tuyg'ular – hayotdan zavqlanish, el-yurt, diyor sevgisi, ona Vatandan uzoqda yurgan lirik qahramonning iztirobli tuyg'ulari, pand-nasihat mavzusidagi ilm-ma'rifat, odob-axloqqa chaqiruvchi mavzular yuksak mahorat bilan kuylanadi. Bobur poeziyasining muhim tomonlaridan biri shoir she'rlari tarixiy voqea va hodisalar bilan chambarchas bog'lanishida va o'sha davrning voqeligi sodda va ravon tilda taraqqiyparvar fikrlar bilan ifodalanishi, jo'shqinligi, til boyligi va hayotiyigidadir:

*Davron meni o'tkardi sar-u samondin,*

*Oyirdi meni bir yo'li xonumondin.*

*Gah boshima toj, gah baloyi ta'na,*

*Nelarki, boshimg'a kelmadi davrondin.<sup>2</sup>*

Amerikalik tadqiqotchi Berk Boburga bergan qisqa va lo'nda tavsiflarida ulug' siymoning hayot yo'li, davlatchilik tarixidagi xizmatlari va shaxsiyatidagi eng muhim jihatlarni muxtasar tarzda yoritishga erishgan. Muallif Boburning hukmronlik siyosati xususida shunday

yozadi: "Boburshohning fikricha, fotihlik va hukmdorlik ishida yuz ming usul qo'llasa ham haq va zarur hisoblanadi. Biroq bosib olingan yerlarni, ayniqsa, bu o'lkalarni o'z saltanati tarkibiga kiritish rejalashtirilgan bo'lsa-da, u g'olib askarlar mag'lublar mulkini talon-taroj qilishiga mutlaqo yo'l qoymasdi". "Boburnoma" haqidagi fikrlar ham diqqatga sazovor: "Men bor haqiqatni yozdim", deydi muallif va haqiqatan ham u o'zining kamchiliklari, omadsizlikka olib kelgan noto'g'ri xatti-harakatlarini o'quvchidan yashirmaydi.

Bobur hayoti va ijodi Fransiyada ham keng o'rganilgan bo'lib, Fransiya ilm ahliga Zahiriddin Muhammad Bobur va "Boburnoma" haqida dastavval ma'lumot bergan fransuz sharqshunosi Bartoleme D'Erbelo (1621-1695) hisoblanadi. D'Erbelo o'zining "Sharq kutubxonasi" (La Biblioteque orientale. Paris, 1967) qomusidagi "Bobur yoki Bobar" nomli maqolasida Boburning hayoti, uning davlati va sarkardalik mahorati, adabiyot va san'atga qiziquvchi ilg'or fikrli kishi bo'lgani haqida ma'lumot beradi.

XIX asrga kelib Yevropa, xususan, fransuz sharqshunosligida Bobur merosini o'rganish, uning asarlarini tarjima qilish borasida yangi davr boshlandi. Ayni shu yillarda Boburning ulkan asari "Boburnoma"ni fransuz tiliga tarjima qilish, uning matn xususiyatlarini o'rganish, siyosiy-tarixiy ahamiyatini baholashda fransuz olimlari e'tiborga molik tadqiqotlarni yaratishdi.

<sup>1</sup> Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Сочининг савдоси тушди. – Т.: Шарқ. 2007-йил, 4-бет.

<sup>2</sup> Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Сочининг савдоси тушди. – Т.: Шарқ. 2007-йил, 188-бет



“Boburnoma”ni fransuz tiliga tarjima va tadqiq qilishga sharqshunos Anri Jyul Klaprot (1783-1835) birinchilardan boʻlib harakatni boshlaydi. 1824-yil A.Klaprotning, “Sulton Bobur yohud “Boburnoma” tarixiga oid kuzatishlar” nomli maqolasi omma eʼtiboriga havola etadi. Markaziy Osiyo va Sibirda yashagan xalqlar tarixi, madaniyati va adabiyotini yaxshi bilgan Klaprot Yevropa sharqshunosligida “Boburnoma” xususida ilk bor toʻlaqonli fikr yuritgan edi. Shundan soʻng 1854-yili Parijda “Hozirda va qadimda yashagan tarixiy shaxslar hayoti” nomli katta kitob chop qilinadi. Mazkur kitobdan sharqshunos M.Langle (1763-1824) ning “Zahiriddin Bobur hayoti va ijodi” nomli maqolasi ham oʻrin olgan edi. Maqolada Bobur haqida avvalgi manbalarga nisbatan ancha boy maʼlumot berilgan boʻlib, oʻquvchi undan adib hayoti va ijodi toʻgʻrisida chuqurroq bilim olishga muvaffaq boʻladi. Boburning hayoti va ijodi fransuz kitobxonini tobora qiziqtirib bormoqda edi. Fransuz olimlari soʻnggi yillarda Bobur toʻgʻrisida tez-tez maqolalar chop ettirar, kitoblar nashr qildirardi.

Boburning davlatchilik va yuksak harbiy maqorati Sharq va gʻarb olimlari, tarixchilari tomonidan tan olingan. Bu borada tarixchi Pave de Kurteylning qarashlari fikrimizga dalildir: «Har qanday sinovga bardosh bera oluvchi, iroda va matonatni oʻzida mujassamlashtirgan bu zot oʻzida harbiy hiyla va jasoratni uygʻunlashtira olar, zarur boʻlganda jazolashga ham va afv etishga ham qodir edi: u isteʼdodli harbiy arbob va ishning koʻzini biladigan, qoʻshinlarni mahorat bilan boshqara oladigan, ularning ishonchini qozona olgan sarkarda edi».

«Boburnoma»da muallif eng avvalo shuni koʻrsatadiki, u hali yosh paytidan boshlab ushbu kasb sirlarini oʻrganishga, yoʻl qoʻygan xatolarini darrov tan olib, ochiq bayon etishga, tuzatishga harakat qilgan. Bobur barcha qoʻl ostidagi shaxslar, raqib va dushmanlarining har bir harakatida diplomatik nazokatni kuzatdi, baholadi. Oʻzining jamiyat, saltanatdagi mavqeini aynan temuriylar diplomatik qoida-qonunlari zaminida, oʻz saltanatidagi yangi tartib va qoidalar bilan toʻldirib bordi. Unga hamma boʻysunishini talab qildi va oʻzi ham bu tartibga rioya etdi.

«Boburnoma»da muallif alohida, yoki ataylab oʻsha davrdagi diplomatik tartib-qoidalar, rasm boʻlgan tartiblar haqida fikr bildirmagan. Mazkur asarni qayta-qayta mutolaa etganimiz bizga ushbu masalani boʻlib oʻtgan voqea-hodisalar ichidan, turli yillarda sodir boʻlgan voqealarning mantiqiy birligiga asoslangan holda maʼlum yaxlitlikka erishishga olib keldi.

Bobur qoldirgan hisobsiz adabiy, ilmiy, tarixiy asarlari, «Aruz risolasi» sheʼriy devoniy-u nazmiy asarlari, Xoja Ahrori Valining «Volidiya» asarining forschadan oʻzbek tiliga oʻgʻirgani, musiqa va harb ilmiga oid asarlari (hali topilmagan) bemalol unga umrbod shuhrat keltirdi va kelgusi avlod ham bundan bahramand boʻlishiga shubha yoʻq.

«Boburnoma» - keng ummon! Unda keltirilgan faktu raqamlar, 1560 dan ortiq shaxslarning tasviri, keng koʻlami bir necha mavzularga taalluqli. Boburning bir voqea, hodisa, joy tasvirida bir necha qarashlari, badiiy tasvirlariga sharh berish, ilmiy xulosalarga kelish, oʻsha davr murakkabliklarini hisobga olish lozim. Buni



Boburning yuksak mahorati, asar personajlari xarakterini murakkab davrning ruhshunos shaxsi sifatida baholashi deb qabul qilish mumkin. Shuning uchun Husayn Boyqaro Shayboniyxon, Shohbegim, Xisravshoh, Boqi Chaqoniyoniy Ibroxim Lo'diy, Muhammad Husayn mirzo va boshqalarning xususiyatlarini har tomonlama, mavzu zaruratiga mos jihati bilan ochib berish uchun bir necha joyda foydalanildi. Tabiat va nabodot, relef tasvirlari, davlat boshqaruvi, Boburga xiyonat, dinlomatik munosabatlar, shaxs xarakteri kabi mavzularni oydinroq yoritish uchun ham goh-gohida shu uslub qo'llanildi.

Boburning tarjimashunoslik sohasida ham o'zini sinab ko'rgani barchamizga ayon. Uning yutug'i shundaki, nasriy yo'lda yozilgan asarni nazmda tarjima qilgan. Ma'lumki, Xoja Ahrori Vali "Volidiya"ni forsiy tilda, nasrda yozgan edi. Bobur bu zotni o'ziga pir hisoblar edi. Shu sababli sog'ligi yomonlashgan paytda "Volidiya" tarjimasiga kirishadi va "Agar qabul bo'lsa, men shifo topayin. Shu orqali tarjimini qabul bo'lgan yoki bo'lmaganini bilayin", deya ko'nglidan o'tkazadi. Asar tarjimasini tugatilgandan so'ng ko'p o'tmay Bobur shifo topadi.

"Volidiya" Boburning tasavvuf ruhidagi tarjimasini bo'lib, unda shoir Xoja Ahrori Valining diniy-tasavvufiy qarashlarini o'zbek tilida berish jarayonida o'z ilohiy kechinmalarini singdirgan. Bu asar diniy yo'lda yozilganligi sababli uzoq vaqt o'rganilmay keldi. Asar haqida ijobiy fikrlar

mamalakatimiz mustaqillikni qo'lga kiritganidan so'ng aytila boshladi.

"Mubayyin"ni o'rganish ishlari ham O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng ro'yobga chiqa boshladi. Bu asarni o'rganish va uning matnini nashr qilish bo'yicha qator ishlar amalga oshirildi. Boburning ushbu asari nafaqat adabiyotshunoslar, balki islomshunos, tarixchi, faylasuf, iqtisodchi, tilshunos, pedagog va boshqa qator soha olimlari uchun qimmatli manba bo'la oladi. "Mubayyin" asari o'tmishimizning boy ma'naviy merosi bilan hur xalqimizning barkamollik yo'lidagi sa'y-harakatlari, ayniqsa, yosh avlodni tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etishi shubhasizdir. Bu asarni o'rganish, eng avvalo, Boburning falsafiy va diniy-axloqiy qarashlarini aniqlash uchun zarur bo'lsa, ikkinchidan, bu asarning ma'naviy hayotimizda tutgan o'rni va uning diniy va badiiy adabiyotning yorqin namunasi sifatidagi tarixiy ahamiyatini belgilash uchun muhimdir.

Xullas, badiiy adabiyot qaysi janr va mavzularda yozilmasin, undan kutilgan asosiy maqsad insonni tarbiyalashdir. Shu jihatdan qaraganda, Zahiriddin Muhammad Boburning ham har bir asari o'ziga xos axloqiy-ta'limiy, ma'naviy ma'rifiy ahamiyatga ega bu asarlarning umumiy ruhi insonni komillik ruhida tarbiyalashga qaratilgan.



**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Rasulov R. Bobur – o‘zbek tilining sofligi uchun kurashuvchi. /Ilmiy to‘plam. Samarqand. 2000-yil.
2. Nafasov T. Bobur nomshunos. / Ilmiy to‘plam. Samarqand 2000-yil.
3. Mamajonov A.M. O‘zbekiston tarixi. Toshkent. 1994-yil.
4. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. I-II-qism 1948-1949-yillar nashrga tayyorlovchi P. Shamsiyev. S. Mirzayev.
5. Fayziyev T.Xusayn Bayqoroning sirli o‘limi. Toshkent 1995-yil.
6. Ibn Battuta va uning O‘rta Osiyoga sayohati. Nashrga tayyorlovchi N. Ibrohimov. Toshkent 1996-yil
7. T. Fayziyev. Temuriylar shajarasi. Toshkent. Yozuvchi-1995-yil.
8. history.uzsci.net
1. 9.http:|www.rambler.ru|